

## BERDAQ-QORAQALPOQ XALQINING OTI O'CHMAS ULUG' SHOIRI

**Aytbayeva Gulandam Tanirbergenovna**

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani*

*24-o'rta ta'lim maktabi o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Matyakopova Nilufar Madamin qizi**

*Ajiniyoz nomidagi davlat Pedagogika instituti*

*Maxsus pedagogika yo'nalishining 2- bosqich talabasi*

**Annatatsiya:** *Maqolada Qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri Berdaq Qargabay (Gargabay) o'g'li haqida ma'lumot berilgan.*

**Kalit sozlar:** *insonparvarlik, vatanparvarlik, kelajakka umid, farovon hayot.*

*„Berdaq...qardosh qoraqalpoq xalqining oti o'chmas ulug' shoiri va qoraqalpoq adabiyoti poydevoriga g'isht qo'ygan ulkan siymosidir”*

**Mirtemir**

Men elga baxt yetsa, dedim,

Zolim oti o'chsa, dedim,

Nola chekib qayg'u yedim,

El gamida otgan umrim.

...Berdimurod haqning quli,

Sahroda o'sgan bulbuli ... deya kuylagan Berdaq Qargaboy o'g'li.

Berdaq taxallusi bo'lib, asl ismi Berdimurod shoir 1827-yili Moynoq tumanida dunyoga kelgan. Berdaq shoir qoraqalpoq adabiyoti asoschisi deb sifat beriladi. Dastlab ovul maktabida, so'ng madrasada tahsil ko'rgan. Berdaq Abulqosim Firdavsiy, Ahmad Yassaviy, Sa'diy Sheroziy, Fuzuliy, Dehlaviy, Jomiy, Alisher Navoiy, Maxtumquli va qoraqalpoq shoiri Kunxo'ja asarlarini chuqur mutolaa qilgan, ulardan o'rgangan. U tarixni va xalq, og'zaki ijodini mukammal bilgan.

Berdaqning lirik sherlarida, dostonlarida qoraqalpoq xalqining 18- 19-asrlardagi ijtimoiy hayoti o'z ifodasini topgan. U o'z davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho beradi. Asarlarida tenglik, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik g'oyalari ilgari suriladi. Shoir Berdaq ijodida mehnatkash xalqning ahvoli asosiy mavzudir. Jumladan «Bolgan emas», «Soliq», «Bu yil», «Umrim» va boshqalar. «Xalq uchun», «Menga kerak» she'rlarida esa, shoir haqiqat uchun, mehnatkash ommaning baxti va kelajagi uchun fidokor kurashchilarni orzu qiladi. Tarixiy mavzudagi «Avlodlar», «Omongeldi», «Aydo'sbiy», «Ernazarbiy» asarlarida shoir xalq qahramonlarini faxr bilan kuylaydi. Berdaqning «Avlodlar» asari tarixiy voqealar solnomasi bolib, qoraqalpoq xalqi bilan boshqa turkiy xalqlar hayotidagi mushtarak voqealar qalamga olinadi, qabila va xalqlarning kelib chiqishi haqidagi voqealari bayon qilinadi. Berdaq «Yaxshiroq», «Shekilli» asarlarida bazi tamagir ruhoniylarning kirdikorlarini fosh etadi. «Oglimga», «Ahmoq

bolma» asrlarida, ayollar huquqini himoya qiladi, yoshlarni vatanni sevishga, marifat choqqilarini egallashga chaqiradi .

Sheriy mushohadalari va hayotga qarashlarvda Berdaq mehnatkashlarning baxtiyor yashashini orzu qildi. Berdaq xalqni baxtli qilish haqida oylar ekan,Allohdan madad soraydi («Yordam ber»),baxt haqida fikr yuritadi («Izladim»),odil podshoni orzu qiladi («Kerak»), baxtiyor yashaydigan jamiyat qurilishiga umid qiladi.

Berdag ijodi xalq og‘zaki adabiyoti an‘analariga yaqin turadi. Ijodi serqirraligi, asarlarining g‘oyaviy va badiiy yuksakligi bilan qoraqolpoq adabiyoti tarixida asosiy mavqeni egallaydi. Uning ko‘pgina asarlari o‘zbek va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilingan. O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonda ulug` shoir Berdaq tavalludlari keng nishonlandi .Toshkent shahridagi hiyabonlardan biriga Berdaqnomi berildi va byusti o‘rnatildi. Shoir tug‘ilgan joy — Bozatovda ham byusti o‘rnatilgan (1998). Nukus shahrida Berdaq haykali qo‘yilgan, musiqali drama teatri, ko‘cha va maktabga Berdaq nomi berilgan. Shoir sherlarining aksari san‘atkorlar tomonidan kuylab kelinmaqda.

Jumladan „Kerak“ sherini olsak,

Shoxida bulbul sayragan,  
Boglari gul-gul chaman,  
Kun nurlari yarashgan,  
Yorug dunyo kerak menga .

...Belini mahkam boglagan,  
Ozini jangga shaylagan,  
Elu yurtni oylagan-  
El gamxori kerak menga.

She‘rni o‘qir ekanmiz, sherda ilgari surilgan mavzu bugungi kundagi bizning baxtiyor kunlarimiz, ozod va obod, farovon hayotimiz ekanligini his qilamiz. Bobolarimiz orzu qilgan hayot bizga nasib qilgan.

Yigit bolsang arslon kabi tugilgan,  
Tanbal bolmay xizmat etgil xalq uchun,  
Yigit bolsang arslon kabi tugilgan,  
Ozni demay,gamxorlik qil xalq uhun

...Mard yigitni agar sevsa elati,  
Kundan-kunga ortar uning qimmatini,  
Ortida qoladi yigit shuhrati,  
Shuning uchun xizmat etar xalq uchun

Shoirning ushbu she'ri har bir o'quvchi qalbiga chuqur xalqparvarlik tuyg'usini jo'sh urdirish tabiiy.

„Kim aytar? sheri insoniylik, odamiylik qiyofasini yoqotayotganlar haqida shunday bitadi:

Otasidan yomon bolsa ,  
Uni yaxshi deb kim aytur?  
Aqlsiz va nodon bolsa,  
Uni yaxshi deb kim aytar?

Odamni odam demasa,  
Yaxshilik qadrini bilmasa,  
Yig`lasang sira kormasa,  
Uni odam deb kim aytar?

Shoirning she'rlarini o'qir ekansiz hech bir izoh talabsiz, xalqona sodda va ravon ekanligiga guvoh bo`lasiz.

Chaqqon odim tashlab, mehnat etmasang,  
Kun korish qiyinroq boldi bu zamon,  
Oylab-oylab maqsadingga yetmasang,  
Kun korish qiyinroq boldi bu zamon („Bu zamon sheridan)

Shoirning qarashlari bugungi tezkor davrimizda ham o'z qiymatini yo'qotmagan.

Sulton bolma yot elida,  
Chopon bolgin oz cholingda ,  
Chagalay ham oz kolida,  
Uchmasa davroni bolmas

Xalq maqollarini eslatuvchi bu she'r misralari hozirda chet ellarda mo'may daromad topaman deb o'z vatanidan olisda uyrgan ayrim vatandoshlarimni eslatib, bizni ogohlikka davat qiladi.

Boston ber , gullarning atri anqisin,  
Oralasin, el sayr etib, chalqisin

Shoir bobomiz bizning kelajagimiz uchun haqdan tilagan tilaklari ijobat bo'lib biz baxtli hayot nashidasini surmoqdamiz. Tinch yurtimizda shoir orzu qilgan sayllar har kuni diyorda hukm surmaqda. Buyuk shoir nomi abadiylashtirilgan. 1998-yili mamlakatimizda Berdaq tavalludining 170 yilligi keng nishonlandi. Toshkent

shahridagi xiyobonlarning biriga Berdaq nomi berilgan va haykali o'rnatilgan. Shoir tug'ilgan joyi-Bozatavda va Nukus shahrida ham haykal qo'yilgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Berdaq. Saylanma Sherlar va Doston. Gufur Gulom nomidagi Adabiyot va sanat nashriyoti Toshkent-1978
2. As: Tanlangan shigarmalari, Nokis. 1956;
3. Tanlangan sherlar, T., 1958;
4. Sherlar, T., 1976.
4. Ad.: Qurbonboev B., Berdaq va o'zbek adabiyoti, T., 1986.
5. Adabiyot xrestomatiyasi 8-sinf uchun Toshkent „Oqituvchi“1985
6. Madaniyat ham sport gazetasi 2007
7. O'zbekiston tarixi., Oqituvchi NASHRIYOTI-MATBAA IJODIY UYI TOSHKENT-2019